

Andijon viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot


O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra shakllantirildi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(2015-2020-yillar 1-aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 35 577 tani tashkil etib, ulardan 32 000 tasi yoki 89,9% faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 990 taga yoki 16,3% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 1 884 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73 taga ko'pdir.

Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

21 577



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 934



Oilaviy korxona

216



Unitar korxona

6 459



Xususiy korxona

40




Aksiyadorlik jamiyati

411




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


birlik




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




108,5%




Sanoat




121,2%




Qurilish




113,0%




Savdo




122,0%




Tashish va saqlash




110,7%




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




132,2%




Axborot va aloqa




108,5%




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




118,5%



Boshqalar




107,7%




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2015-2020-yillar 1-aprel holatiga ko'ra)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

310
boshqalar

37
aksiyadorlik
jamiyati

189
unitar korxona

1 779
oilaviv korxona

5 029
xususiy korxona

19 817
mas'uliyati
cheklangan jamiyat


27 161
tijorat korxonalari

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 27 161 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'satayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 029 ta, oilaviy korxonalar – 1 779 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari – 19 817 ta, unitar korxonalar – 189 ta, aksiyadorlik jamiyati – 37 ta va boshqalar – 310 tani tashkil etgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(2015-2020-yillar yanvar-mart oylarida)

birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy sonidagi ulushi


(2020-yil yanvar-mart oylarida)





2020-yil yanvar-mart oylarida 1 884 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 foizga o'sgan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 323 ta, xususiy korxonalar – 80 ta, oilaviy korxonalar – 416 ta, muassasalar – 29 ta va boshqalar – 36 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlar tarkibi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



01.04.2019-y.




01.04.2020-y.



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar


(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 6 852 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8% ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 114,4% ga (jami sanoatdagi ulushi 95,7%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 134,9% ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 108,1% ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6%) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 123,3% ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1%) o'sishidir.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 809 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,7% ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ko'payishining asosiy omili bo'lib, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 142,1% ga (jami qurilishdagi ulushi 24,9%), fuqarolik obyektlarini qurish – 136,9% ga (jami qurilishdagi ulushi 6,3%) o'sishidir.

Binolar va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 97,2% ga (jami qurilishdagi ulushi 68,8%) kamaygan.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 656 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,9% ga oshdi.

Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 114,0% ga (jami savdodagi ulushi 65,3%), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 105,4% ga (jami savdodagi ulushi 28,0%), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 142,6% ga (jami savdodagi ulushi 6,7%) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

747

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

7

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

20

Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



116

yashash bo'yicha xizmatlar



1 576


oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 692 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1% ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 119,4% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,1%), yashash bo'yicha xizmatlarning – 2,2 martaga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,9%) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 524 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,6% ni tashkil qildi.

Jami axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonidan, nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 97,8% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,4%), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 94,7% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,7%), aloqa xizmatlarning – 85,6% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 42,9%) kamaygan.

Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 103,7% ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 5,4%) tashkil etdi. Axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 140,0% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,7%), dasturlar tuzish va teleradio-eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 111,1% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,9%) o'sgan.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 1 934 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 294 taga yoki 3,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 779 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 169 taga yoki 2,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 416 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 367 taga yoki 8,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 21 577 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 980 taga yoki 122,6% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 817 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 763 taga yoki 116,2% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 323 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 207 taga yoki 13,5% ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

01.04.2020 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

01.04.2019 y.




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (11 011 ta), Asaka (3 016 ta), Shahrixon (2 223 ta), Andijon (2 040 ta), Qo'rg'ontepa (1 592 ta) va Baliqchi (1 539 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	316	168	148
Oltinko'l	18	13	5
Andijon	25	19	6
Baliqchi	8	2	6
Bo'ston	8	5	3
Buloqboshi	11	6	5
Jalolquduq	8	4	4
Izboskan	8	5	3
Ulug'nor	5	3	2
Qo'rg'ontepa	8	6	2
Asaka	18	11	7
Marhamat	13	5	8
Shahrixon	24	9	15
Paxtaobod	7	3	4
Xo'jaobod	14	9	5
Andijon sh.	126	60	66
Xonobod sh.	15	8	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 126 ta (jamidagi ulushi 39,9%), Andijon 25 ta (7,9%) va Shahrixon tumanlarida 24 tani (7,6%) tashkil etgan. Eng kam Ulug'nor 5 ta (1,6%), Paxtaobod 7 ta (2,2%), Baliqchi, Bo'ston, Jalolquduq, Izboskan, Qo'rg'ontepa tumanlarida 8 tadan (2,5%) hamda Buloqboshi tumanida 11 tani (3,5%) tashkil etadi.

Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	69	35	34
Qirg'iz Respublikasi	34	16	18
Qozog'iston Respublikasi	7	3	4
Belarus Respublikasi	6	5	1
Ukraina Respublikasi	3	0	3
Ozarbajon Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	1	0	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	0

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrdagi MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrdagi mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozarbajon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina Respublikasi MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.


Bugungi kunda Andijon viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,8%, Qirg'iz Respublikasi 10,8%, Qozog'iston Respublikasi 2,2%, Belarus Respublikasi 1,9%, Ukraina Respublikasi 0,9% va Ozarbajon Respublikalarida 0,9% ga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)




2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida taqsimoti, %

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni, birlikda

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda


(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Andijon shahri 7 530 ta (jamidagi ulushi 38,0%), Asaka 1 453 ta (7,3%), Shahrison 1 426 ta (7,2%), Andijon 1 323 ta (6,7%), Izboskan 936 ta (4,7%), Qo'rg'ontepa 870 ta (4,4%), Oltinko'l 864 ta (4,3%) va Xo'jaobod 852 ta (4,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Ulug'nor 291 ta (1,5%), Bo'ston 325 ta (1,6%), Xonobod shahri 410 ta (2,1%), Buloqboshi 499 ta (2,5%), Paxtaobod 726 ta (3,7%), Jalolquduq 736 ta (3,7%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kichik korxona va mikrofirmalarning faollik holatlari bo'yicha tarkibi, % da

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 27 026 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7% ga ko'pdir. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahri (9 882 ta), Asaka (2 618 ta), Shahrixon (1 851 ta) va Andijon (1 756 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Ulug'nor (383 ta), Bo'ston (552 ta), Xonobod shahri (544 ta), Buloqbooshi (703 ta), Jalolquduq (900 ta), Paxtaobod (972 ta) hamda Xo'jaobod (992 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.04.2019 yil	01.04.2020 yil
Andijon viloyati	792 250	24 517	27 161
Oltinko'l	49 201	1 295	1 198
Andijon	68 443	1 669	1 766
Baliqchi	52 241	1 222	1 241
Bo'ston	17 985	567	555
Buloqboshi	35 040	577	705
Jalolquduq	45 701	868	904
Izboskan	58 964	1 114	1 124
Ulug'nor	15 583	442	388
Qo'rg'ontepa	54 166	1 082	1 261
Asaka	82 576	2 333	2 627
Marhamat	44 284	1 091	1 069
Shahrixon	76 354	1 605	1 856
Paxtaobod	52 754	772	978
Xo'jaobod	25 803	819	995
Andijon sh.	102 609	8 688	9 945
Xonobod sh.	10 546	373	549

** 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*


2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon shahri (31,0%), Asaka (26,2%), Bo'ston (9,4%), Qo'rg'ontepa (7,5%), Buloqboshi (6,0%), Andijon (5,8%), Oltinko'l (5,3%), Xonobod shahri (4,1%), Shahrixon (2,4%), Baliqchi (1,4%), Izboskan (0,5%), Xo'jaobod (0,2%) va Paxtaobod (0,2%) tumanlari ulishiga ega.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha soni, birlikda

soni, birlikda



o'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yi 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the Republic of Uzbekistan State Statistical Committee. The header includes the national emblem, the committee's name in Uzbek and English, and navigation links. The main content area is titled "INTERAKTIV XIZMATLAR" and features a dropdown menu for "KYaDR ma'lumotlari". The menu options are: Xizmatlar ro'yxati, Elektron hisobot, KYaDR ma'lumotlari, Uslubiy materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. The "Korxona pasporti" option is selected, leading to a form for entering the STIR code. The form includes a field for "STIR kodini kiriting" with a sample code "99831k", a field for "Rasmdagi kodni kiriting", and a "Qidiruv" button. The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" services, and the right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.: 74 228-29-74